



Social deictics as social indicators

Gulnoza SHERMATOVA¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

social deixis,
social status,
communicative act,
information exchange, social
markers,
implicit expression,
subjective attitude,
level of social interaction.

ABSTRACT

The article is dedicated to the study of social deixis, its expression in language, and the role and significance of social deictics in communicative speech. In this work, social deictic units are categorized into types, and the referential properties of certain verbs are discussed.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp140-144>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Sotsial deyktiklar ijtimoiy ko'rsatkichlar sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ijtimoiy deyksis,
sotsial mavqe,
kommunikativ akt,
axborot almashinuvi,
sotsial belgilar,
implitsit ifoda,
subyektiv munosabat,
ijtimoiy aloqa darajasi.

Maqola sotsial deyksis, uning tildagi ifodasi, muloqot nutqida sotsial deyktiklarning o'рни hamda ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Mazkur ishda sotsial deyktik birliklar turlarga ajratilgan, shuningdek, fe'l turkumiga oid ayrim so'zlarning ishora xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

¹ Doctoral student, Andijan State University. E-mail: mgggm6@gmail.com

Социальные дейктики как социальные индикаторы

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

социальный дейксис,
социальный статус,
коммуникативный акт,
обмен информацией,
социальные признаки,
имплицитное выражение,
субъективное отношение,
уровень социального
общения.

Статья посвящена изучению социального дейксиса, его выражения в языке, роли и значимости социальных дейктических элементов в речевом общении. В работе произведена классификация социальных дейктических единиц, а также рассмотрены указательные свойства некоторых слов, относящихся к глагольной категории.

Til hamisha insoniyat hayoti, ijtimoiy faoliyatining ajralmas qismi hisoblangan va shundayligicha qoladi. "Lison ham hayot manbayi, shu sababli uning hayotdagi o'rnini, undan odamlar qanday foydalanayotganligini hamda uning hayot darajasi, sifatiga qanday ta'siri borligini bilmoq kerak. Bularning barchasi biz foydalanayotgan hodisa – tilning tabiati va ijtimoiy mohiyatini bilish imkonini yaratadi". Til murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Chunki u nafaqat tashqi olamni, balki bir vaqtning o'zida undan foydalanuvchiga xos xususiyatlar (uning yoshi, ba'zan jinsi, saviyasi, dunyoqarashi, kayfiyati kabilar)ni ham namoyon qiladi. Aytish mumkinki, til obyektiv borliqni subyektiv munosabatlar bilan birga aks ettiradi. Tilning xuddi shu xususiyati uning murakkablik va serqirralik mohiyatini yuzaga chiqaradi.

Til bevosita jamiyatga xizmat qilgani sabab jamiyat a'zolari o'rtasidagi murakkab munosabatlar, ijtimoiy me'yorlar, o'zgarishlar tilda aks etadi. Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ijtimoiy munosabatlarning tilda qay yo'sinda aks etishini o'rganadigan qoidalar **tilning ijtimoiy strukturasi**ni tashkil qiladi. Jamiyat o'z a'zolari xatti-harakatlariga ijtimoiy-axloqiy me'yorlar orqali muayyan talablar qo'yadi. Mana shu talablardan biri nutqiy muloqot odobi hisoblanadi. Nutq uning ishtirokchilari ijtimoiy holati haqida ma'lumot beruvchi asosiy vositadir. Nutq orqali maqsadi axborot almashinuvi bo'lgan muloqot jarayoni yuzaga keladi, muloqotning tabiiyligi esa nutq ishtirokchilarining ijtimoiy holatiga e'tibor orqali ta'minlanadi.

Tilshunoslikda sotsial deyksis termini mavjud bo'lib, mazkur atama nutq ishtirokchilarining ijtimoiy holatiga ishora qilish tushunchasini anglatadi. Jahon tilshunosligida ilk marta Ch.Fillmor deyksisning an'anaviy turlari: shaxs, zamon va makon deyksisi qatorida sotsial deyksis (ijtimoiy deyksis)ni farqladi. Mazkur tasnif Rauch, Levinson, Renkema, Yulelar tomonidan qo'llab-quvvatlandi va sotsial deyksis nutq ishtirokchilarining o'zaro munosabatlariga ishora qiluvchi, ular o'rtasidagi ijtimoiy aloqa darajasini belgilovchi, deyksisning an'anaviy uchligini to'ldiruvchi tarkibiy qism sifatida ko'rsatildi. Sh. Safarov suhbatdoshga nisbatan bildirilayotgan munosabat yashirin yoki ochiq, ijobiy yoki salbiy, bevosita yoki bilvosita va boshqa ko'rinishlarga ega bo'lishi, bu turdagi munosabatlarning barchasi sotsial deyksis hodisasi mundarijasini tashkil qilishini qayd etgan. Shuningdek, deyktik birliklarning semantik xususiyatlari sifatida ularning uzatilayotgan axborotning muayyan qismlarini ta'kidlash, aniqlashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi hamda deyktik markazni tarkib toptiruvchi qismlar sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: 1. Markaziy shaxs – so'zlovchi. 2. Markaziy vaqt (zamon) – nutqiy harakat ijro etilayotgan vaqt. 3. Markaziy makon – so'zlovchining nutqiy harakat

bajarilayotgan paytdagi o'zni. 4. Ijtimoiy markaz – so'zlovchining ijtimoiy mavqeyi. Olim deyksis hodisasining ijtimoiy belgilari, ya'ni "muloqot ishtirokchilarining roli, ularning ijtimoiy tabaqalanish darajalari ham so'zlovchi – adresat munosabatida aniqlanishi"ni ta'kidlaydi.

Q. Rasulov o'zining "O'zbek muloqot nutqining funksional xoslanishi" nomli nomzodlik dissertatsiya ishida o'zbek tilida dialektal so'zlar, jargonlar, argolar, qarindoshlik atamaları, kasb-kor bilan bog'liq so'zlar "indivdning kasb-kori, lavozimi, mavqeyi ta'sirida shakllangan xarakteri (huquqi), shu shaxsning majburiyati (burchi) bilan birga uning kommunikativ aktda egallaydigan pozitsiyasini belgilab beradi" degan fikrni ilgari suradi.

R. Davlatova o'zining doktorlik ishida sotsial deyksis atamasi o'rnida ijtimoiy deyksis atamasini qo'llaydi. Mazkur atama muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyiga havola qilishini ta'kidlab, tilda sotsial deyksisni ifodalovchi vositalar sifatida kishilik, so'roq olmoshlari, ayrim grammatik vositalar, murojaat birliklari, argo va jargonlar, qarindoshlik atamaları, kasb-korni bildiruvchi so'zlar hamda "faqat ma'lum bir kontekstda ishora qiluvchi birliklar"ni ko'rsatadi. Ijtimoiy deyksisni shakllantiruvchi birliklar shaxsga ishora qiluvchi deyktik birliklar bilan umumiylik kasb etadi. Negaki nutq ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeidan avval uning o'ziga ishora qilinadi deya ta'kidlaydi.

Ijtimoiy deyksisni ifodalovchi til birliklari tilning asosiy kommunikativ vositalaridan bo'lib, ular jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, hurmat, obro' va statusni aks ettirib, nutq tuzuvchilarining o'zaro munosabat va aloqalarini, nutqiy aktda tutgan roli, tanishlik darajalarini, madaniy ijtimoiy me'yorlarni ifodalashga, shuningdek, kommunikatsiya jarayonini aniqroq va tushunarliroq bo'lishiga ham imkon beradi. **Sotsial deyksisni ifodalovchi lisoniy vositalar fonetik, leksik, grammatik, sintaktik birliklardan tashkil topsa, tana harakatlari orqali ishora qilish (imo-ishoralar) mazkur hodisani ko'rsatuvchi nolisoniy vositalar hisoblanadi.**

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sotsial deyksis muloqotda nutq ishtirokchilari bildirgan munosabat orqali muloqot quruvchilarining ijtimoiy holatiga ishora qiluvchi lisoniy hodisadir. Ijtimoiy deyktiklar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Kasb-korni bildiruvchi so'zlar.
2. Argolar.
3. Jargonlar.
4. Dialektalizmlar.
5. Qarindoshlik atamaları.
6. Murojaat birliklari.
7. Olmoshlar.
8. Ayrim fe'llar (farmon bermoq, nasihat qilmoq, duo qilmoq, (lavozimga) tayinlamoq, itoat qilmoq kabi).
9. Ko'chma ma'noli ayrim so'zlar (katta, kichik, birinchi, ota kabi).

O'zbek tilidagi ko'plab fe'l turkumiga oid so'zlar orqali kommunikativ jarayon ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham ular sotsial deyktiklar qatoridan o'rin oladi. Farmon bermoq, ruxsat olmoq yoki bermoq, nasihat qilmoq, buyruq chiqarmoq, (lavozimdan) ozod qilmoq, fatvo bermoq, nikohlamoq, sadaqa so'ramoq kabi fe'llar nutqda ishlatilganda uning ishtirokchilari ijtimoiy statusi qanday ekaniga ishora etiladi. Masalan, FARMON – (f. – amr, hukm,

ko'rsatma; qat'iy qaror) 1. Biror ishning bajarilishi haqida beriladigan buyruq, hukm, topshiriq; amr. 2. Hokimiyat oliy organi yoki davlat boshlig'ining qonun kuchiga ega bo'lgan buyrug'i, farmoyishi. Kelib chiqadiki, farmon berish "davlat boshlig'ining qonun kuchiga ega bo'lgan" "biror ishning bajarilishi haqida" buyruq, farmoyish berishidir. Fatvo bermoq fe'li muloqot jarayonida ishlatilganda uning qatnashchilaridan birining Qur'on va hadis ilmlari, fiqh va islom tarixini juda chuqur va mukammal biladigan shaxs ekani ayon bo'ladi. Ya'ni ijtimoiy-diniy mavqega ega shaxsga ishora seziladi. Chunki fatvo so'zining lug'aviy ma'nosi bunga ishora qiladi: FATVO – [a. – muftining hukmi, qarori; tushuntirish, izoh]. Shariat, din qonun-qoidalari asosida ruhoniylar (mufti, shayxulislom, qozi) tomonidan biror diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masala yuzasidan chiqariladigan hukm, qaror, izoh yoki biror ishning shariat nuqtai nazaridan amalga oshirish mumkinligi haqidagi ko'rsatma, buyruq. Tilanchiga, muhtojlarga beriladigan xayr-ehsonni so'rab olish sadaqa so'rash deyiladi. Sadaqa so'ramoq fe'li sotsial deytik sifatida u qatnashgan nutqiy jarayon ishtirokchisi ijtimoiy jihatdan past tabaqaga tegishli ekaniga ishora qiladi: Shoqosim past, ayanchli ovoz bilan bir nimalar so'zlab, o'tkinchilardan sadaqa so'raydi. (Oybek. Tanlangan asarlar.) Mazkur gapdagi "sadaqa so'raydi" jumlasini Shoqosimning ijtimoiy kelib chiqishi hamda maqomiga ishora qilgan.

Itoat – ar. bo'ysunish. Itoat qilmoq (yoki etmoq) Bo'ysunmoq, hukmiga yurmoq. Bugundan e'tiboran Isfandiyor to'ra Xiva xonidir. Hamma yangi xonga so'zsiz itoat qilishga majbur. (*J. Sharipov, „Xorazm“*.) Itoat qilmoq fe'li diniy ma'noda ham qo'llanadi. Bunda ikki xil mazmun tushuniladi: Allohga itoat qilmoq va uning bandalariga itoat qilmoq. Alloh taolo marhamat qilib aytadiki: **"Ey iymon keltirganlar! Allohga itoat qiling, Payg'ambarga va o'zingizdan bo'lgan ishboshilarga itoat qiling"**. (Niso surasi 59-oyat) **"Kimki Payg'ambarga itoat etsa, muhaqqaq, Allohga itoat etgan bo'lur. Kimki (itoatdan) yuz o'g'irsa (ranjimang), Biz sizni ularning ustiga qo'riqchi qilib yubormadik"**. (Niso surasi, 80-oyat) Mazkur oyatlardan Alloh bandalariga O'zi va uning rasuli (s. a. v.) buyruqlariga itoat qilish bilan birga musulmonlarning o'zlaridan bo'lgan din va davlat boshliqlariga ham itoat qilishlarini buyurmoqda. Allohga itoat qilish Uning oxirgi kitobi Qur'oni Karimga amal qilish, "bandalariga buyurgan amrlarini bajarish, qaytariqlaridan qaytish bo'lsa, payg'ambar (s. a. v.)ga itoat etish u zot (sollallohu alayhi va sallam) sunnatlarini mahkam ushlab va man etgan narsalardan saqlanishni" anglatadi ("Tafsiri Qurtubiy", 3-jild, 155-b.).

Har ikki ma'noda ham itoat qilmoq fe'li belgilangan qoidaga, tartibga yoki buyruqqa bo'ysunish, amal qilish, tartibni saqlash, diniy, ijtimoiy, axloqiy me'yorlarga va madaniy qoidalarga rioya qilish jarayonini anglatib, **mana shu harakatni bajaruvchisining majburiyati (burchi) bilan birga kommunikativ aktda egallagan pozitsiyasiga, ya'ni ijtimoiy holatiga ishora qilishini kuzatish mumkin**. Aytish mumkinki, nutqda muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy holatini ifoda etishda fe'l turkumiga oid so'zlar ham sotsial deytik birlik sifatida qo'llanishi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Rasulov Q. O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2008.
3. Davlatova R. O'zbek tilining deytik birliklari. Filol. fan. dok. diss. – Toshkent, 2020.
4. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.

5. Rauch G. Aspects of Deixis. – Tübingen: Narr, 1983. – P. 9-60.
6. Levinson S. Deixis and pragmatics // L. Horn, G. Ward (eds.) The Handbook of Pragmatics. – Oxford: Blackwell, 2004.
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-juz. Toshkent, 2019.
8. <https://izoh.uz/uz/word/>
9. <https://uz.wiktionary.org/wiki/>